


Respublika OAK jurnali

ISSN 2181-4201

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY-METODIK JURNALI



AVGUST 2026, 5-SON

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
<https://etjournal.buxdpi.uz>



BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY – METODIK JURNAL

№. 5

BUXORO – 2026

IMOM ABU HOMID G'AZZOLIY QARASHLARI ASOSIDA FARZAND TARBIYASINING METODOLOGIK VA NAZARIY ASOSLARINI TADQIQ ETISH

Isoqova Gulnoz Ulug'bek qizi,

Buxoro xalqaro universiteti, magistranti

gulnozisogova99@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada Abu Homid Muhammad G'azzoliyning farzand tarbiyasiga oid pedagogik qarashlarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etishga bag'ishlangan. Tadqiqotda Sharq falsafiy tafakkurining yirik namoyandasi bo'lgan Imom G'azzoliyning antropologik va axloqiy ta'limoti asosida shaxs kamoloti, ayniqsa yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol etib tarbiyalash masalalari chuqur tahlil qilinadi. Allomaning axloq, odob, iymon-e'tiqod, ilmga muhabbat, mehnatsevarlik, oila va jamiyat munosabatlariga oid qarashlari pedagogik nuqtayi nazardan baholanadi hamda ularning zamonaviy oliy ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash imkoniyatlari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Imom G'azzoliy ta'limotida farzand tarbiyasi uzluksiz va bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan murakkab pedagogik jarayon sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: yosh avlod, farzand, tarbiya, qarash, odob, komillik, ta'limot, ma'naviy, insonparvarlik, oila, jamiyat, pedagogik, axloqiy, qarash, iymon-e'tiqod, tavsiya, natija, g'oya.

ИССЛЕДОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИХ И ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ОСНОВ ДЕТСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ВЗГЛЯДОВ ИМАМЫ АБУ ХАМИДА ГАЗАЛИ

Исакова Гулноз Улугбек кызы,

Бухарский международный университет, магистрант

gulnozisogova99@gmail.com

Примечание: Данная научная статья посвящена научно-теоретическому и практическому изучению педагогических взглядов Абу Хамида Мухаммада Газали на воспитание детей. В исследовании глубоко анализируются вопросы личностного развития, особенно духовного и нравственного воспитания молодого поколения, на основе антропологического и нравственного учения имама Газали, одного из ведущих представителей восточной философской мысли. Взгляды ученого на нравственность, этикет, веру, любовь к науке, трудолюбие, семью и социальные отношения оцениваются с педагогической точки зрения, а также раскрываются возможности их применения в современном процессе высшего образования. Результаты исследования показывают, что в учении имама Газали воспитание ребенка рассматривается как сложный педагогический процесс, непрерывный и осуществляемый поэтапно.

Ключевые слова: молодое поколение, ребенок, воспитание, взгляд, этикет, совершенство, обучение, духовность, гуманизм, семья, общество, редакционная статья, мораль, взгляд, убеждение, рекомендация, результат, идея.

RESEARCH OF METHODOLOGICAL AND THEORETICAL BASIS OF CHILDREN'S EDUCATION BASED ON THE VIEWS OF IMAM ABU HAMID GHAZALI

Isaqova Gulnoz Ulugbek kizi,

Bukhara International University, Master's student

gulnozisogova99@gmail.com

Annotation: This scientific article is devoted to the scientific-theoretical and practical study of the pedagogical views of Abu Hamid Muhammad Ghazali on child upbringing. The study deeply analyzes the issues of personal development, especially the spiritual and moral upbringing of the younger generation, based on the anthropological and moral teachings of Imam Ghazali, a major representative of Eastern philosophical thought. The scholar's views on morality, etiquette, faith, love of science, hard work, family and social relations are evaluated from an pedagogical point of

view and the possibilities of their application in the modern higher education process are revealed. The results of the study show that in Imam Ghazali's teachings, child upbringing is interpreted as a complex pedagogical process that is continuous and carried out in stages.

Keywords: young generation, child, upbringing, view, etiquette, perfection, teaching, spiritual, humanism, family, society, editorial, moral, view, belief, recommendation, result, idea.

Kirish

Jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayonida “ommaviy madaniyat” va “axloqiy nigilizm” kabi illatlarga qarshi kurashda G‘azzoliyning ilmiy merosi nazariy-metodologik, g‘oyaviy-mafkuraviy, diniy-ma’rifiy jihatdan ahamiyatlidir. O‘zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab, jamiyatimizning barcha sohalarida, jumladan ma’naviy-ma’rifiy hayotimizda ham ulkan o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bunday o‘zgarishlar natijasida yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalash masalasi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, yoshlarda yuksak ma’naviy fazilatlar, boy ma’naviy madaniy merosimiz, tariximiz, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat hissini tarbiyalash, axloqiy tarbiya me’yorlarini ular ongiga singdirish muhim ahamiyatga ega. Abu Homid G‘azzoliyning boy pedagogik merosi, yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga oid qarashlari, ayniqsa, axloq-odob, insof, diyonat, imon, e’tiqod, vijdon, mehnatsevarlik, ilmsevarlik, insoniylik xususidagi g‘oyalari barkamol shaxsni har tomonlama va uyg‘un rivojlantirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, uning ta’limiy-axloqiy qarashlarida asosiy o‘rin tutgan ilmsevarlik, vatanparvarlik, erkinlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, iymone’tiqodlilik, halollik, axloqiy poklik, odillik, birodarlik, hurfikrlilik kabi barkamol inson tarbiyasiga xos g‘oyalarni yosh avlod ongiga singdirish muhim didaktik qimmatga ega. Sharq xalqlarida, ayniqsa o‘zbeklarda farzand oila, ota-ona munosabatlarini mustahkamlovchi muhim asos hisoblanadi. Oilada farzandni dunyoga kelishi ota-onani mehr-oqibat, o‘zaro bir-birini tushinishi va hamkorligini ta’minlovchi, undagi quvonch va qayg‘ularni birgalikda hal qilishga undovchi vositadir.

Bugungi kunda mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari biri sifatida amalga oshirilmoqda. Milliy qadriyatlar, urf-odat va an‘analar, tarixiy-ma’rifiy, ijtimoiy-madaniy merosni qadrlash, ulug‘ mutafakkirlar jumladan, Imom G‘azzoliyning qarashlari, g‘oyalari, ta’limotlarini o‘rganish, ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, uning asarlaridagi ta’limiy-axloqiy jihatlarni yoshlarga o‘rgatish lozim. Imom G‘azzoliy musulmon olamida o‘zining barkamol inson haqidagi qarashlari, g‘oyalari bilan mashhur shaxs hisoblanadi. Shuning uchun ham uning pedagogik qarashlarini o‘rganish hamda bugungi kun ta’lim-tarbiya amaliyotiga olib kirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.

XIX asr oxirlarida Yevropada G‘azzoliy ijodiyotiga qiziqish yanada oshib bordi. Nemis tadqiqotchisi P.Гуше “G‘azzoliy xayoti va ijodi” kitobida G‘azzoliyning 40 ta asari haqida aytib o‘tgan, Д.Б.Макдоналд esa o‘zinig 1899 yilda chop etilgan “Amerika sharqshunoslari to‘plami” jurnalida “G‘azzoliy hayoti” maqolasida uning 72 ta asari haqida aytib o‘tgan. В.П.Гарднер “G‘azzoliy ijodi” asarida G‘azzoliyning ba’zi asarlarini tahlil qilgan. Yana bir g‘arb olimlaridan biri fransuz tadqiqotchisi Г.Лайст o‘zining “Siyosat va G‘azzoliy” (Политика и Газали) asarida G‘azzoliyning axloq borasidagi qarashlarini tahlil qilgan. Bundan tashqari yaponiyalik olim Kojiro Nakamura o‘zining doktorlik dissertatsiyasida G‘azzoliyning gnoseologik qarashlarini yoritgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi olimlari qatorida tasavvuf ta’limotining mazmun-mohiyati, tasavvufda inson kamoloti masalalarini yoritishda quyidagi fundamental tadqiqotchilar: O.F.Akimushkin, V.V.Bartol’d, A.A.Semyonov, Dj.S.Trimengem, F.Rozental, V.L.Vyatkin, G.M.Kerimov, M.T.Stepanyants, A.D.Knish, E.Karl, M.Abubakr, J.M.Abduljalil, M.B.Bous, E.Tabariy, N.S.Kirabaev, V.V.Naumkin, P.S.Taranov, A.A.Shamolov tomonidan allomaning ijtimoiy, diniy, ratsional va falsafiy qarashlari tahlil qilingan va o‘rganilgan.

Mustaqillik yillarida allomaning ba’zi qarashlari A.Azizkulov, M.N.Boltaev, I.Haqqulov,

R.Isoqjonov, M.Imomnazarov, N.Komilov, G.Navro'zova, M.Baratov, M.Xayrullaev, O.Fayzullaev, H.Aliqulov, R.Nosirov, B.Turaev, Q.Nazarov S. K.Karimov, X.Yu.Salomova, N.O.Safarova, G. Yunusova, A. Madraimov, F.D.Muzaffarovlarning ilmiy ishlarini alohida ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq.

Tilshunos olimlardan M.Eshmuhammedova, Sh.Sirojiddinov, H.Homidi, sharqshunos olim M.Qodirov kabi ilm - fan namoyandalari tomonidan G'azzoliyning ilmiy merosi qayta ko'rib chiqilgan.

Olimlarning tadqiqotlarida yoshlarni ma'naviy-axloqiy shakllantirish va rivojlantirishda milliy qadriyatlarining ahamiyatini ochib berishga harakat qilganlar. Biroq, mazkur ishlarda ham Imom G'azzoliyning yosh avlod ma'naviyatini shakllantirishdagi qarashlari, pedagogik g'oyalari maxsus dissertasion tadqiqot darajasida ochib berilmagan. Biroq, bevosita Imom G'azzoliy ijodini o'rganish va undagi boy ta'lim-tarbiya borasidagi tadqiqotlar yetarli emasligi, uning yosh avlod tarbiyasiga oid qarashlari, oila masalalari, ota-ona bilan farzand munosabatlari jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammo ekanligini hisobga olib, biz tadqiqot ishimizning mavzusini “Imom Abu Homid G'azzoliyning farzand tarbiyasiga oid qarashlarining pedagogik ahamiyati” deb nomladik.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur ilmiy ishda quyidagi tadqiqot metodlaridan foydalanildi:

Nazariy tahlil metodlari

G'azzoliyning asosiy asarlari, jumladan Ihyo Ulum ad-Din, Ey farzand Ayyuhal Valad kabi manbalar ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Pedagogik, falsafiy va diniy adabiyotlar o'rganilib, farzand tarbiyasiga oid konseptual qarashlar tizimlashtirildi. Abu Homid G'azzoliy merosini pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, u faqatgina yirik din arbobi va targ'ibotchisi bo'libgina qolmay, balki buyuk mutafakkir, dunyoviy ilm tashvig'otchisi, pedagogik fikr namoyandasi bo'lganligi bilan ham alohida ilmiy salohiyatga egadir. Bu uning pedagogik yondashuvlari, g'oyalari, yoshlar ta'lim-tarbiyasiga oid qarashlarida yaqqol namoyon bo'ladi. G'azzoliyning pedagogik qarashlarida yana bir diqqatga sazovor jihat – farzandlarning ota-onalari va ustozlarga bo'lgan hurmati, muhabbatini targ'ib qilish yetakchi o'rin egallaydi. Ota-onani hurmatlash haqida u shunday deydi: “Ota-ona keksa bo'lsa, ularga yordam berish va yolg'iz qoldirmaslik kerak. Boshqalarning ular bilan yengil-elpi muammolariga yo'l qo'ymaslik, xizmatlarini to'la ado etish uchun qo'ldan ne kelsa bajarmoq lozim. Farzand kichik paytida ota-ona unga qo'l-qanot bo'ldilar. Yemadilar, yedirdilar. Kiymadilar, kiydirdilar. Kenglik-tanglik, bor-yo'q, issiq-sovuq demadilar. Xizmatdan qochmadilar”. Farzand aqlli, ma'rifatli bo'lgandagina buni tushunadi va ota-onaning qadriga yetadi.

Qiyosiy-tahliliy metod

G'azzoliy qarashlari zamonaviy pedagogika nazariyalari bilan solishtirildi. Ajdodlarning milliy-ma'naviy, pedagogik merosida ilgari surilgan g'oyalarni bugungi kunda yosh avlod ongiga singdirish, ularda o'z xalqi, uning o'tmishi, kelajagiga yuksak ishonch, hurmat, ma'naviy merosdan g'ururlanish hissini shakllantiradi. Yoshlarda ma'naviy-axloqiy ta'lim-tarbiya berishda ajdodlar merosida ilgari surilgan mazkur g'oyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bu borada buyuk Sharq mutafakkirlarining farzandlar tarbiyasi borasidagi boy ma'naviy merosi va undan samarali foydalanish katta ijobiy natija berish bilan birga katta ma'naviy manba bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birgalikda uning “Ey farzand” nomli asari tahlil qilindi va unda qalb pokligi, halimlik, kamtarlik, mehribonlik, ilmsevarlik, yaxshilik, saxiylik, mardlik, kechirimli bo'lish, vafodorlik kabi ijobiy sifatlarni ulug'lash g'oyasi ifodalangan. Shu bilan bir qatorda, mazkur asar mazmuni yoshlarni hayotga muhabbat, kattalarga nisbatan mehr-muruvvatli, imon-e'tiqodli, g'amxo'r, mehnatsevar, vatanparvar qilib tarbiyalashga qaratilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili.

Mazkur tadqiqot jarayonida Imom Abu Homid G'azzoliy ning farzand tarbiyasiga oid qarashlari tizimli ravishda tahlil qilinib, ularning metodologik va nazariy asoslari aniqlashtirildi.

Olingan natijalar quyidagi yo‘nalishlarda umumlashtirildi.

1. G‘azzoliy qarashlarida farzand tarbiyasining integral modeli aniqlandi

Tahlillar natijasida G‘azzoliy ta’limotida farzand tarbiyasi quyidagi o‘zaro bog‘liq komponentlardan iborat yaxlit tizim sifatida namoyon bo‘lishi aniqlandi:

Axloqiy tarbiya (odob, halollik, sabr)

Ruhiy tarbiya (nafsni poklash, iymonni mustahkamlash)

Aqliy tarbiya (ilm olish, tafakkurni rivojlantirish)

Mazkur komponentlar o‘zaro uyg‘unlikda bolada komil inson sifatlarini shakllantirishga xizmat qilishi ilmiy asoslandi. Bu borada Farobiy komil inson obrazini tasvirlar ekan, bunday deydi: “Har kimki ilm hikmatni o‘rganaman desa, uni yoshligidan boshlasin, sog‘ - salomatligi yaxshi bo‘lsin, yaxshi axloq va odobi bo‘lsin, so‘zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlangan bo‘lsin, barcha qonun - qoidalarini bilsin, bilimdon va notiq bo‘lsin, ilmi va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol - dunyosini ayamasin, barcha real moddiy narsalar to‘g‘risida bilimga ega bo‘lsin”. Bu fikrlardan Farobiyning ta’lim va tarbiyada yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda xususan, aqliy - axloqiy tarbiyada alohida e’tibor berganligi ko‘rinib turibdi, uning e’tiqodicha, bilim, ma’rifat, albatta yaxshi axloq bilan bezatilmog‘i lozim, aks holda kutilgan maqsadga erishib bo‘lmaydi, bola yetuk bo‘lib yetishmaydi.

2. Tarbiyada qadriyatlar tizimining ustuvorligi asoslab berildi

Kontent-tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, Ihyo Ulum ad-Din va Ayyuhal Valad asarlarida farzand tarbiyasi avvalo axloqiy qadriyatlarga tayangan holda tashkil etilishi zarur deb qaraladi. Aniqlanishicha: Axloq – tarbiyaning markaziy elementi hisoblanadi hamda Ilm – axloq bilan uyg‘un holda berilgandagina samarali bo‘ladi. G‘azzoliy ilm va axloqni bir-biri bilan chambarchas bog‘lab ko‘radi. Uning fikricha, ilmning maqsadi faqat foydali bilimlarga ega bo‘lish emas, balki insonni yaxshilash, uning axloqini poklash va ma’naviy taraqqiyotga erishishdir. Hozirgi davrda yoshlar orasida axloqiy masalalar, mas’uliyat, o‘z-o‘zini anglash va jamiyatga xizmat qilish kabi mavzular tobora dolzarb bo‘lib bormoqda.

3. Ota-ona va ustozning tarbiyadagi roli aniqlashtirildi

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, G‘azzoliy qarashlarida: Ota-ona – birlamchi tarbiya subyekti hamda Ustoz – ma’naviy kamolot yo‘lboshchisi ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Uning yozib qoldirgan buyuk nodir namunalaridan “Ihyo ulumid-din”, “Kimyoyi saodat”, “Ayyuha-I-valad” va “Ey farzand” kabi asarlarida tarbiya jarayonining mazmun va mohiyatini chuqur yoritib bergan. G‘azzoliy bola pok fitratda dunyoga keladi deb bolani oq qog‘ozga o‘xshatadi va ota-ona, ustoz va murabbiylar unga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatuvchi kishilar va ular bolaga og‘zaki nasihat bilan cheklanmasdan, balki o‘z xulq atvori bilan ham namuna bo‘lishi kerak deb ta’kidlaydi.

Muhokama.

Muhokamalar shuni korsatadiki, mazkur tadqiqot natijalari Imom Abu Homid G‘azzoliy ning farzand tarbiyasiga oid qarashlari mukammal metodologik tizimga ega ekanligini ko‘rsatadi. Tahlillar shuni anglatadiki, G‘azzoliy konsepsiyasida tarbiya jarayoni faqat tashqi ta’sirlar yig‘indisi emas, balki shaxsning ichki — ruhiy va axloqiy transformatsiyasiga qaratilgan murakkab, ko‘p qatlamli jarayon sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda aniqlanishicha, G‘azzoliy tomonidan ilgari surilgan qalb tarbiyasi g‘oyasi inson rivojining markaziy determinantlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Unga ko‘ra, bilim va xulqning sifat darajasi bevosita qalb holati bilan belgilanadi. Ushbu yondashuv zamonaviy pedagogika va psixologiyada keng qo‘llanilayotgan emotsional intellekt hamda o‘zini-o‘zi boshqarish (self-regulation) konsepsiyalari bilan mazmunan uyg‘unlashadi. Demak, G‘azzoliy nazariyasida ilgari surilgan ichki nazorat va ruhiy poklanish g‘oyalari bugungi ilmiy diskursda yangi terminologiya asosida davom etmoqda.

Muhokama jarayonida G‘azzoliy tomonidan tavsiya etilgan tarbiya metodlarining samaradorligi ham alohida e’tiborga loyiq. Xususan, namuna (uswah), nasihat, rag‘bat va jazo, odatlantirish kabi metodlar bugungi kunda ham pedagogik amaliyotda keng qo‘llanilmoqda. Ularning zamonaviy analoglari sifatida “modeling”, “reinforcement” va “behavioral conditioning”

tushunchalarini keltirish mumkin. Bu esa G‘azzoliy yondashuvining empirik asosga yaqinligini va uning amaliy ahamiyatini kuchaytiradi. Bundan tashqari, tadqiqot natijalari tarbiya jarayonining kontekstual xarakterini ham ochib beradi. G‘azzoliy qarashlarida oila muhiti, ijtimoiy muhit va diniy qadriyatlar muhim determinantlar sifatida talqin etiladi. Bu yondashuv zamonaviy pedagogikadagi ekologik tizimlar nazariyasi bilan uyg‘un bo‘lib, shaxs rivojining ko‘p omilli ekanligini tasdiqlaydi. Shunday qilib, tarbiya jarayoni individual va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadigan dinamik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, ayrim metodologik cheklovlarni ham qayd etish lozim. G‘azzoliy qarashlari asosan diniy-falsafiy asosga ega bo‘lib, ularni zamonaviy sekulyar ta’lim tizimiga bevosita tatbiq etish muayyan darajada interpretatsiyani talab qiladi. Umuman olganda, Imom Abu Homid G‘azzoliy ning farzand tarbiyasiga oid qarashlari nafaqat tarixiy-pedagogik meros, balki zamonaviy ta’lim tizimini boyituvchi konseptual asos sifatida ham yuqori ilmiy qiymatga ega. Uning yondashuvi shaxsning ruhiy, intellektual va axloqiy jihatdan uyg‘un rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan integral model sifatida baholanishi mumkin.

Xulosa

Mazkur maqola Imom Abu Homid G‘azzoliy ning farzand tarbiyasiga oid qarashlarini tizimli va ilmiy-nazariy asosda tahlil qilish orqali uning pedagogik merosi yuqori metodologik salohiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari G‘azzoliy konsepsiyasining markazida insonning ruhiy-axloqiy kamoloti turishini, tarbiya jarayoni esa qalbni poklash, ilm va amal uyg‘unligini ta’minlash hamda axloqiy fazilatlarini shakllantirish orqali amalga oshirilishini tasdiqlaydi. Shuningdek, aniqlanishicha, G‘azzoliy tomonidan ilgari surilgan tamoyillar — xususan, qalb tarbiyasi, ilm va amal birligi, namuna asosida tarbiya va ijtimoiy muhitning roli — zamonaviy pedagogik paradigmalardagi shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy hamda holistik yondashuvlar bilan mazmunan uyg‘unlashadi. Bu esa uning qarashlari universalligini va ularni bugungi ta’lim tizimiga moslashtirish imkoniyati mavjudligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, Imom Abu Homid G‘azzoliy ning farzand tarbiyasiga oid qarashlari zamonaviy pedagogika uchun muhim nazariy va metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Uning tarbiya konsepsiyasi shaxsning ruhiy, axloqiy va intellektual jihatdan uyg‘un rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan integral model sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari ushbu yondashuvni zamonaviy ta’lim tizimiga adaptatsiya qilish imkoniyati mavjudligini ko‘rsatdi. Shu nuqtai nazardan, G‘azzoliy merosini chuqur o‘rganish va uni innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan integratsiyalash kelajakda samarali va barqaror tarbiya tizimini shakllantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Miromonovich Mirziyoyev “ Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz“. Toshkent, 2016.
2. Isoqova, G. U. Imom G‘azzoliy farzand tarbiyasiga oid qarashlarini o‘rganishning ilmiy-nazariy asoslari // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. – 2025. – № 9. – ISSN 3030-3710 (P); ISSN 3030-3095 (E).
3. Asadbekov M. Oilada farzand tarbiyasi va uning jamiyatdagi ahamiyati. – Ilmiy maqola. – Toshkent, 2025.
4. Nabiyeva, A. K. Imom G‘azzoliy farzand tarbiyasiga oid qarashlarini o‘rganish pedagogik muammo sifatida // PEDAGOGS ilmiy jurnali. – Toshkent, 2025.
5. Xaydarov F. I. “Sharq mutafakkirlaridan Imom G‘azzoliy o‘quv faoliyati motivatsiyasi haqidagi qarashlari“. – Toshkent: Ilmiy maqola, 2021.
6. Akhmedov B.V. Pedagogical Ethics and Moral Education in Al-Ghazali’s Heritage // SHOKH Library. – 2025. – Vol. 4. – №3. – B. 112–118.
7. Yusupova N. G‘azzoliy ta’limotida axloqiy tarbiya masalalari // Pedagogik mahorat. – 2021. – №4. – B. 88–93.
8. Rasulov A. Sharq mutafakkirlari merosida farzand tarbiyasi masalalari // Pedagogik ta’lim. –

2021. – №3. – B. 45–50.

9. <https://www.ziyouz.com/>

10. <https://www.ziyonet.uz/>

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA , PSIXOLOGIYA VA METODIKA	
AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING INDIVIDUAL JISMONIY YUKLAMALARINI OPTIMALLASHTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH Mansurov Olimjon Odil o'g'li	4
CHUQURLASHTIRILGAN IXTISOSLIK BOSQICHIDA UZOQ MASOFAGA YUGURUVCHILARNING MASHG'ULOT JARAYONINI BOSHQARISH MUAMMOLARI Sirojev Shoxrux Fayzullo o'g'li	11
CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM DIDAKTIKASIDA TARBIYALASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI Bozorov Aziz Abloqulovich	16
DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TASVIRIY SAN'AT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI Bozorova Hamida Shukrilloyevna	23
CHIZMACHILIK FANINI SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANIB O'QITISHNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI Omonova Rayxon	26
JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA REGBI ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH ORQALI TALABALARNING HARAKAT KOORDINATSIYASINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI E.E. Jumayev	31
JISMONIY MADANIYAT YO'NALISHI TALABALARIGA KURASH TEXNIK HARAKATLARINI O'RGATISHNING UYG'UNLASHTIRILGAN METODIK MODEL G'ulomov Nasillo Baxshullo o'g'li	34
BO'LAJAK PEDAGOGLARDA HUQUQIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH MEZONLARI VA INDIKATORLARI Mirzayev Toxirjon Turg'unovich	43
ISSIQ IQLIMDA MASHG'ULOT YUKLAMASINI RPE VA YURAK URISH CHASTOTASI YORDAMIDA BAHOLASH I.I. Saidov	55
IMOM ABU HOMID G'AZZOLIY QARASHLARI ASOSIDA FARZAND TARBIYASINING METODOLOGIK VA NAZARIY ASOSLARINI TADQIQ ETISH Isoqova Gulnoz Ulug'bek qizi	61
RAQAMLI MONITORING VOSITALARI ORQALI YOSH KURASHCHILAR YUKLAMASINI OPTIMALLASHTIRISH Karim Mahramov	67

TALABALARNING REFLEKSIV KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI Jumayeva Azizabonu Mo'min qizi	74
IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHGA DOIR TAJRIBALAR Kattaqulova Nozbibi Shokir qizi	82
MINIATYURA SAN'ATIDA AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TASVIRIY VOSITALARNING UYG'UNLIGI Nozimova Muhabbat Akram qizi	85
DIGITAL TECHNOLOGY FOR L2 LISTENING DEVELOPMENT: CALL, MALL, CAPTIONS, VR, AND AI Juraboeva Nigina Olimjon kizi	95
ISSIQ IQLIM SHAROITIDA GIDRATATSIYA TARTIBINING YOSH YENGIL ATLETIKACHILARNING FUNKSIONAL HOLATI VA JISMONIY ISH QOBILIYATIGA TA'SIRI Nuriddinov Axrorjon Bahodir o'g'li	99
GANDBOLCHI TALABA QIZLARDA JISMONIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHDA BOSQICHMA-BOSQICH YUKLAMA BERISH METODIKASI Dilnoza I. Yarasheva	105
OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIGA BOSQON ULOQTIRISH TEXNIKASINI O'RGATISHNING PEDAGOGIK VA METODIK ASOSLARI Sarvinoz Iskandar qizi	111
GIMNASTIKA VOSITALARI ORQALI BO'LAJAK JISMONIY MADANIYAT O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI Saidova Mahbuba Ayubovna	118
BOSHLANG'ICH TAYYORLOV GURUHIDAGI SPORT GIMNASTIKACHILARDA MOSLASHUVCHANLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING SAMARADORLIGI Sayfiyev Hikmatullo Xayrulloevich	127
THE APPLICATION OF THE PEDAGOGICAL CONCEPT OF JADID SCHOOLS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM Shamsullayeva Ruxsatoy Sunnatullayevna	134
MULTIMEDIA VOSITALARI ASOSIDA TALABALARNING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI Toshova To'ygul Amin qizi	141
INKLYUZIV TA'LIM MUHITIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING HAYOTIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEKANIZMLARI Urunova Dilafruz Muzafarovna	145
МАКТАБ КЛАСТЕРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИННОВАЦИОН, КОМПЕТЕНЦИАВКИЙ ВА РЕСУРСЛАРГА АСОСЛАНГАН ЁНДАШУВЛАР Максуда Умаровна Бадалова	153
ЭВОЛЮЦИЯ ПОНЯТИЯ «КОММУНИКАТИВНАЯ	158

КОМПЕТЕНЦИЯ» В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ТЕОРИИ: ОТ ЯЗЫКОВОГО ЗНАНИЯ К ИНТЕГРАТИВНОЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ХАРАКТЕРИСТИКЕ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ Нуруллаева Гузал Анваровна	
FILOLOGIYA FANLARI	
ОТ ПЕРЕЖИВАНИЯ К СМЫСЛУ: АВТОРСКАЯ МЕТОДИКА ИНТЕРПРЕТАЦИОННОГО ОСВОЕНИЯ ПОЭЗИИ А. АХМАТОВОЙ В ПРОЦЕССЕ ЯЗЫКОВОГО И ЛИЧНОСТНОГО РАЗВИТИЯ УЧАЩИХСЯ Жабборова Гулчехра Жобировна	168
NUTQIY AKTNI TADQIQ ETISHNING LINGVOPRAGMATIK VA ANTROPOSENTRIK MEZONLARI Akramova Surayo Renatovna	174
TILNI O'RGANISH JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKTNING KALIT JIHATLARI VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISH STRATEGIYALARI: RAQAMLI DAVR TILSHUNOSLIGINING YANGI UFQLARI Boymurodova Nishona Yunus qizi	178
IMOM G'AZZOLIY ASARLARIDA "ILM" KONSEPTINING LINGVOKOGNITIV TALQINI Barnoyeva Zarina Sayfiddinovna	184
ПУТЬ К СМЫСЛУ ЧЕРЕЗ СИМВОЛ: АВТОРСКАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ ТВОРЧЕСТВА А. БЛОКА В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ЛИТЕРАТУРНОГО ОБРАЗОВАНИЯ Жабборова Гулчехра Жобировна	189
INGLIZ XALQ ERTAKLARI LINGVOMADANIY-DIDAKTIK MIKROKORPUSINI SHAKLLANTIRISH: TANLASH MEZONLARI VA ANNOTATSIYA MODELI Djabbarova Feruza Azamovna	194
JOMIY VA NAVOIY IDIOSTILIDA "LA'L" KONSEPTI VA UNING METAFORIK XUSUSIYATLARI Tavakkal Choriyev	200
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV TOPSHIRIQLARNING TALABALAR KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI Shabonova Shaxnoza Baxriddinovna	213
ANIQ VA TABIIY FANLAR	
BO'LAJAK BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA QO'YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR Hamdamova Nozima Mukimovna	218
GRAFIK SAVODXONLIKNI BAHOLASHDA ANIMATSION DIAGNOSTIKA VOSITALAR Xo'janiyozov Shokir Rustamovich	225